

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO
HAMKORLIK MASALALARI»**

mavzusidagi

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

2021-yil 18-oktabr

TOSHKENT- 2021

UO‘K 811.512.133’0
KBK 81.2 O‘zb
S 60

«O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari»: xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari / Mas’ul muharrir – Sh. Sirojiddinov. -T.: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. - 420 bet.

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, professor

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

To‘lqin Tog‘ayev

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Botir Tojiboyev

filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Ushbu to‘plamda «O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga yuborilgan maqolalar jamlangan. To‘plamda o‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik, amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika muammolari, til ta’limi, o‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi va o‘zaro hamkorlik, madaniyatlararo muloqotda o‘zbek tilining o‘rni, o‘zbek tilini davlat tili sifatida har tomonlama rivojlantirish, o‘zbek tili va turkiy tillar tarixi, o‘zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan o‘zaro aloqalari tadqiqi, lug‘atshunoslik, atamashunoslik, til korpusi kabi o‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriyat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan

ISBN: 978-9943-7317-6-9

© “Nodirabegim” nashriyoti, 2021

**THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY
SPECIAL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN**

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER
ALISHER NAVO'I**

**“MATERIALS OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC-
PRACTICAL CONFERENCE
ON THE THEME:
“DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE AND
ISSUES OF INTERNATIONAL COOPERATION”**

October 18, 2021

TASHKENT – 2021

UO‘K 811.512.133’0
KBK 81.2 O‘zb
S 60

**“Development of the Uzbek language and issues of international cooperation”:
materials of international scientific-practical conference” / Responsible editor
– Sh. Sirojiddinov. -T.: “Nodirabegim” publishing house, 2021. – P. 420.**

Responsible editor

Shuhrat Sirojiddinov,

Doctor of philological sciences, professor

Collected and prepared for publication by:

To‘lqin Tog‘ayev

Candidate of Philological Sciences

Botir Tojiboyev

Candidate of Philological Sciences

This collection comprises articles submitted to the international scientific-practical conference on the theme: “Development of the Uzbek language and issues of international cooperation”. The collection considers issues on development of the Uzbek language and international cooperation, practical linguistics and linguo-didactics, language teaching, Uzbek language teaching in foreign countries and cooperation, the role of the Uzbek language in intercultural communication, comprehensive development of the Uzbek language as the state language, Uzbek and history of Turkic languages, studies of the interaction of the Uzbek language with other Turkic languages, theoretical and practical issues of Uzbek linguistics, such as lexicography, terminology, language corpus.

The book is intended for philological specialists, scientific researchers, bachelor and master degree students, as well as for a wide range of readers.

ISBN: 978-9943-7317-6-9

© “Nodirabegim” nashriyoti, 2021

10. Ишаев А.Шевалар луғатиға киритилдиган сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1988. 2-сон, 37-42-бет. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. –Т.: Фан, 1990. 140 б.
11. Дадабоев Х. Девону луғотит туркнинг тил хусусиятлари. –Т.: 2017.
12. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғот-ит турк. Уч томлик. I том –Т.: Фан, 1960. II т. –Т.: Фан, 1961. III том. –Т.: Фан, 1963.
13. Mirazyev T. Doston gultoji. “Alpomish” dostoniga yozilgan so‘zboshi. –Т.: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2010.
14. Mirzayev T., Eshonqul J., Fidokor S. “Alpomish” dostoning izohli lug‘ati. –Т.: 2007.

O‘zbek tilida evfemizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari **Linguocultural features of euphemisms in Uzbek language**

Hakimova Muhayyo Karimovna*

***Annotation.** This article explains how the use of euphemisms is related to the culture of the people. It pays special attention to our family euphemisms, which are considered to be Uzbek national values. Today’s political euphemisms are also analyzed.*

***Keywords:** euphemism, speech, folk culture, linguocultural studies, ethnic culture, taboo, dysphemism.*

Til insoniyatga berilgan eng katta ne’matlardan biridir. U orqali insoniyat olamni va o‘zini biladi, ularni nomlaydi, ma’lumotlarni saqlaydi hamda kelajak avlodga qoldiradi, tuyg‘ularini ifoda etadi, bir-birini tushunadi. Demak, til nafaqat, aloqa quroli, nomlash vositasi, balki u inson ruhiyatining, tafakkurining oynasi hamdir.

Tilda evfemizmlarning qo‘llanishi xususida gap ketganda V. fon Gumboldning “Tilda xalq ruhi aks etadi” degan fikri naqadar asosli ekanligini tasdiqlanadi. Zero o‘zbek tili egalarining barchasi uchun xos bo‘lgan stereotiplardan biri bag‘rikenglikdir. Bu stereotip turli qadriyatlarda aks etadi. Qattiq gapirmaslik, vaziyatni yumshatish, uyat holatlarni berkitish, qo‘polokni muloyimlashtirish kabilar evfemizmlarda ko‘rinadi va u xalq madaniyatidan darak beradi. Bu haqida N.Mahmudov shunday yozgan edi: “...tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning bor-budi, bo‘y-basti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borlig‘ini anglash demakdir. Muayyan xalq tilining mazmun-u mohiyatini idrok etish shu xalqning tarixi-yu kelajagini idrok etish demakdir”. [Маҳмудов, 1998:3]

Tilda evfemizmlarning qo‘llanishi, odatda, dag‘al ma’noli birliklarning salbiy ta’siridan qochish, tinglovchi uchun nutq jarayonida muloyimlikni berish kabi o‘ziga xosliklar bilan belgilanadi. Bu masalada rus va boshqa Evropa tilshunoslari “haqiqiy vaziyatning berkitilishi” vajini ham ilgari suradilar.

Bizningcha, esa evfemizmlarning yana bir jihati borki, u so‘zlovchining, so‘zlovchi mansub xalqning yuksak madaniyatidan, etnomadaniy axloqiy me’yorlaridan darak beradi. Misol uchun, “katta yoshli odamning husni urib qolibdi” jumlasining o‘rniga “ulg‘ayibsiz” deb qo‘llash so‘zlovchining madaniyatli ekanligidan, o‘ziga munosib bo‘lmagan so‘zlarni qo‘llamasligidan darak beradi.

Evfemizmlar, odatda, tabularning o‘rinida qo‘llanuvchi so‘z va iboralar hisoblanadi. Bilamizki, tabular qo‘llanish o‘rniga ko‘ra farq qiladiki, u lahja, geografik hudud, ijtimoiy guruhlar doirasida ham kuzatilishi mumkin. Oddiy bir xonadonning ham so‘z qo‘llashda o‘zining tabusi bo‘lishi kuzatiladi. Masalan, biror bir oilada kimdir onkologik kasal bilan og‘rib olamdan o‘tgan bo‘lsa, ma’lum bir vaqt shu kasallik nomi tabuga uchrashi mumkin.

* Filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti. hakimova@navoiy-uni.uz

Evfemizmlarning chegarasini tabular bilan tugatib qo'yish to'g'ri emas. Bu xususida M.Mirtojiyev ham quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Haqiqatan ham ayrim so'zlarning madaniy muloqatga sig'ishmaganligi uchun qo'llanmaganligi tabu emas. Ammo madaniy muloqatga sig'ishmaydigan, qo'pol, dag'al, andishasiz so'zlardan muomala jarayonida tiyilishga to'g'ri kelar ekan, uning o'rnida yumshoqroq, yoqimliroq, madaniyroq so'z, ibora tanlash joiz bo'ladi. Mana shu so'z, iboraning tanlanishi evfemizmnining ko'rinishlaridan biri hisoblanadi". [Mirtojiyev, 2010: 87-88].

O'zbek xonadanida har kuni bir necha bor ishlatiladigan oddiy so'zlarni tahlil qilib ko'raylik. Nima uchun dadamiz onamizga "onasi", onamiz esa "dadasi" deya murojaat qiladi? Nega ismlarini aytib chaqirishmaydi? Ismlarini aytib chaqirish oila uchun tabu. Bu o'zbek xonadanidagi yuksak andishaning natijasidir. Er va xotinning jamiyat oldida, hattoki, ismlarini aytishga andisha qilishidandir. Men eslayman, bobom buvimni, buvim bobomni katta ammamning ismi bilan "Hamida" deb chaqirar edilar. Agar ammamni chaqirish kerak bo'lsa, "Hamidaoy" deyishardi. Bolalik ekan, kichikligimda uchovlarining ham ismlari bir xilmi deb ham o'ylaganman. Keyinchalik, bu bir odat ekanligini tushundim. Ayni paytda esa bu oddiy o'zbek oilasining yuksak ma'naviyatidan, hayosidan bir nishona ekanligini angladim. Ayni paytda yosh oilalarda bu odat bir muncha unutilganini kuzatish mumkin. Yoshlar bir-birlariga nisbatan otananing oldida "jonim", "hayotim" kabi so'zlarni ishlatayotganini ko'rib, uyalib ketasan odam. Lekin rostini aytsam, bu holatni men jonli guvohi bo'lmaganman. Faqatgina televizordagi seriallarda ko'rganman va eshitganman. Balki adashayotgandirman, menimcha, juda ham andishali xalqimizni seriallarda beandisha qilib ko'rsatish nimaga va kimga kerak?

Muayyan bir hodisa turli tillarda evfemizmlar bilan yumshatilishi kuzatiladi. Masalan, o'lim holati barcha zamon va makon uchun mudhish jarayon. Lekin u har kimning boshida bor bo'lgan haqiqat. Mazkur holatni yumshoqroq nomlash tiriklar uchun dalda va qo'rquvdan qutilish uchun sabab bo'lishi muqarrar. O'zbek tilida *vafot etmoq, olamdan o'tmoq, ko'z yummoq, rihlat qilmoq, ruhi osmonga parvona bo'lmoq, mangu orom topmoq*; rus tilida *boshqa dunyoga ketmoq* (уйти в мир иной); inglizlarda *ko'pchilikka qo'shilmoq, romashka terishga ketmoq, g'arbga ketmoq*; xitoylarda esa aksincha *ketmoq* kam qo'llanadi *eski uyiga qaytmoq, Yan-van bilan uchrashmoq* kabi. Ko'rinib turibdiki, har bir evfemistik qo'llashda shu xalqning o'lim haqidagi dunyoqarashi aks etadi. Barcha halqlar uchun yakdil bir holat borki, o'limni evfemistik nomlashda dunyo tashvishlaridan xalos bo'lish vajining mavjudligi: *найти вечный покой, обрести вечное успокоение, отыскать вечный покой* (mangu orom topmoq), тожик тилида *rāhat šodan, gonooodan, āramidan* (orom olmoq) *o'lmoq* so'zi o'rnida qo'llansa, *ārāmgāh (oromgoh) qabriston*, rus tilida ruslarda esa vafot etgan odam *покойник* (dam oluvchi) deb ataladi.

O'zbek tilida o'lmoq holati bilan bog'liq juda ko'p evfemizmlar bor. Ayniqsa, *tuproqqa topshirmoq* evfemizmidagi o'zbekona falsafa mavjud. Unda onaning mehri, bolasini hech kimga ishonmasligi, diniy qarashlar, tuproqqa bo'lgan munosabatlar aks etadi. "Mana shu nutqiy madaniyat – evfemik tasvir O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida yuksak formada aks etgan:

Shon bolam, jonim bolam.

Allohga topshirdim seni.

Allohga dodim etmadi,

Tuproqqa topshirdim seni. [Омонтурдиев, 14]

Bugungi kunda siyosiy, tibbiy evfemizmlar ham farqlanadiki, *negr* yoki *qora tanli* so'zi o'rniga *afroamerikalik, nogiron* so'zi o'rniga *imkoniyati cheklangan inson, ko'r – ko'rish imkoniyatini yo'qotgan, kar-eshitish imkoniyatini yo'qotgan, kambag'al – ijtimoiy muhofazaga muhtoj kishi, defektologiya – maxsus pedagogika* kabi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 830-sonli qarori shunday nomlanadi: "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini yanada qo'llab-quvvatlashga

qaratilgan o'zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida".

Tibbiyotda ham o'ziga xos evfemistik qo'llashlar juda ko'p kuzatiladi. Ular yomon kasalliklar, og'ir holatlar bilan bog'liq. Masalan, "kasalni yo'qotmoq", "vaqtimiz ko'p emas", "davolash befoйда", "oxirigacha harakat qilamiz", "qo'ldan kelganini qilmoq" kabi evfemizmlar qo'llanadi.

Quyida o'zbek xalqida qora rangi bilan bog'liq evfemizmlarga to'xtalib o'tamiz. Insonlar hali to'liq himoyalangan vaqtda qorong'i kechadan, tunda bo'ladigan tabiat va boshqa hodisalaridan qo'rqishi tunga hamda uning rangi hisoblangan qora rangiga nisbatan salbiy munosabatni vujudga keltirgan. Shu salbiy munosabat asnosida *qora* so'zi yomonlikning ramziga aylanib qolgan: *Bilmam, qarolik boshima Qaydin, sabab nadir, Ko'z qorasimu yo magar Manglayning qorasi* (E.Vohidov). Qora rangiga bo'lgan salbiy munosabat ushbu so'zni ehtiyotkorona qo'llash ehtiyojini keltirib chiqaradi. Shu o'rinda donishmand halq uning salbiy ma'nosini yumshatish maqsadida *qora* so'ziga -cha, -gina, kabi qo'shimchalarni qo'shib hamda *qorachadan kelgan, qoramag'iz* kabi birikmalar orqali nomlaydi. Abdulla Qahhorning "Asror bobo" hikoyasida "ozibmanmi, qorayibmanmi" degan savolga "Mayiz bo'libsan" deb javob beriladi. A.Qahhor *qora* so'zini qo'llashdan qochib shu rangdagi, lekin shirin "mayiz" nomi bilan vaziyatni yumshatgan. *Yoki hammaga mashhur ushbu jumalalar ham fikrimizni dalillaydi: Qorani qora demanglar, Qoraning ori keladi. Qora mayiz eganda, Qandday shirin bo'ladi. Bu o'rinda mayiz so'zi ham qora rangli yoqimli narsa uchun ham ramz bo'lib xizmat qilmoqda.*

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin, nutq jarayonida dag'al, uyat ma'nolarni yumshatish, muloyimroq iboralarni qo'llash xalqning ham umumiy madaniyatidan va uning bir bo'laki bo'lgan nutq madaniyatidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мадвалиев А. Тиббиёт терминологиясининг соҳавий ва изоҳли луғатларда берилишига доир / Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2017.
2. Маҳмудов Н. Тил. –Т.: Ёзувчи, 1998.
3. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Т., 2010.
4. Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Сўз қўллаш саънати. "Жайхун" нашриёти. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/Jabbor%20Omonturdiyev,%20Anvar%20Omonturdiyev.%20So'z%20qo'llash%20san'ati.pdf
5. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. –Т., 2019.

Sarlavhalar pragmatikasi xususida On the pragmatics of headlines

Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna*

Annotation. Maqolada publitsistik matnlarda sarlavhalarning o'rni, tuzilish jihatidan turlari, ularning pragmatik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Publitsistik uslub, implikatsiya, segment qurilma, eksplitsit, axborot, kognitiv tilshunoslik, pragmalingsvistika, publitsistik uslub.

Annotation. The article discusses the role of headlines in journalistic texts, their structural types, and their pragmatic features.

* Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti, PhD, umurzakovamarkhabo@gmail.com